Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 378

TIL O‘QITISH METODIKASI VA RAQAMLI PEDAGOGIKA

TALABALARNING YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA CHAT GPT DAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Qizlarxon Abdiolimova[a,*], Dona Satvoldiyevna Usmonova[b]

[a] *Farg’ona davlat universiteti*

[b] *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi mudiri*

✉ abdiolimovaqizlarxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ChatGPTdan talabalarning yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida foydalanishning didaktik imkoniyatlari, cheklovlari va tashkiliy shartlari tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlili va ilmiy manbalarni umumlashtirish metodlariga tayangan. Tahlil natijasida ChatGPTni tayyor matn ishlab beruvchi vosita emas, balki rejalashtirish, dalillash, til me’yorlarini anglash, mezon asosida fikr-mulohaza olish, matnni qayta ko‘rib chiqish va refleksiya qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik yordamchi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Talabaning mualliflik pozitsiyasini saqlashga qaratilgan besh bosqichli model, amaliy topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari taklif etildi.

Kalit so‘zlar

Kalit so‘zlar. ChatGPT, sun’iy intellekt, yozma nutq, akademik yozuv, formativ fikr-mulohaza, qayta tahrir, metakognitiv refleksiya, akademik halollik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278440

ChatGPTdan nazoratsiz foydalanish talabaning mustaqil fikrlashi va mualliflik ovozini zaiflashtirishi, tekshirilmagan ma’lumot va mavjud bo‘lmagan manbalarning matnga kirib qolishiga olib kelishi mumkin. Demak, asosiy savol ChatGPTdan foydalanish yoki foydalanmaslik emas, balki undan qaysi bosqichda, qanday vazifa bilan, qanday nazorat va baholash mezonlari asosida foydalanishdir. Maqolaning maqsadi ChatGPTdan talabalarning yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida foydalanishning didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliy mashg’ulotlar uchun jarayonli model taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ChatGPTning yozuv jarayonidagi funksiyalari tahlil qilindi, talaba va o‘qituvchi faoliyatining chegaralari belgilandi, amaliy topshiriqlar va baholash mezonlari ishlab chiqildi, shuningdek etik va akademik xavflarni kamaytirish usullari tizimlashtirildi.

Mavzuga oid tadqiqotlar tahlili. Generativ sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari bo‘yicha dastlabki yirik tahlillardan birida Kasnesi va hammualliflar katta til modellarining individuallashtirilgan tushuntirish, tezkor fikr-mulohaza va o‘qituvchiga yordam berish imkoniyatlarini ko‘rsatgan, ayni paytda noto‘g’ri axborot, tarafkashlik, maxfiylik va akademik suiiste’mol xavflarini ham qayd etgan. Kohnke, Moorhouse va Zou ChatGPTning til ta’limida dialog, namunaviy matn, lug’at va grammatik izohlar berish imkoniyatlarini muhim deb hisoblaydi, biroq natijani tanqidiy tekshirish va vazifani pedagogik maqsad bilan bog’lash zarurligini ta’kidlaydi. Barrot esa ikkinchi til yozuvida ChatGPTning g’oya yaratish, matnni tashkil qilish va tahrirga yordam berish salohiyatini qayd etib, tayyor matnga qaramlik hamda mualliflikning passivlashish ehtimolini asosiy cheklov sifatida ajratadi.

Mahapatra tomonidan o‘tkazilgan aralash metodli intervensiya tadqiqotida ChatGPT formativ fikr-mulohaza vositasi sifatida qo‘llanganda talabalarning akademik yozuv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan. Tadqiqot ishtirokchilari mazmun, tashkil etish va grammatik aniqlik bo‘yicha yordamni foydali deb baholaganlar. Shu bilan birga, ayrim talabalar grammatik tafsilotlarga e’tiborning susayishi va sun’iy intellektga qaramlik xavfini bildirgan. Koltovskaia, Rahmati va Saeli magistratura talabalarining ilmiy matnni qayta ko‘rib chiqish jarayonini o‘rganib, foyda faqat fikr-mulohazani olish bilan emas, balki uni anglash, saralash va ongli ravishda qabul yoki rad etish bilan yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola nazariy va analitik xarakterga ega. Unda 2023-2025 yillarda chop etilgan ChatGPT, generativ sun’iy intellekt, ikkinchi til yozuvi, akademik yozuv va avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza masalalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar hamda UNESCO tavsiyalari tahlil qilindi. Nazariy tahlil orqali yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy qismlari va ChatGPTning funksiyalari o‘zaro moslashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida inson tomonidan beriladigan fikr-mulohaza bilan sun’iy intellekt fikr-mulohazasining kuchli va zaif tomonlari ajratildi. Pedagogik modellashtirish asosida talabaning mustaqil yozuvini saqlaydigan besh bosqichli amaliy model ishlab chiqildi. Tahlil birligi sifatida yozuv jarayonining olti tarkibiy qismi olindi, ya’ni g’oya va maqsadni shakllantirish, matn kompozitsiyasi, dalillash, leksik-grammatik aniqlik, qayta tahrir va metakognitiv refleksiya. Har bir tarkibiy qism bo‘yicha ChatGPTga topshirilishi mumkin bo‘lgan yordamchi vazifa, talabaning bajarishi shart bo‘lgan mustaqil amal va o‘qituvchi nazoratining shakli belgilandi. Mazkur yondashuv tayyor mahsulotni emas, balki yozuv jarayonida kuzatiladigan rivojlanishni baholashga qaratilgan.

Natijalar va muhokama.

ChatGPTning yozma nutqni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari. Tahlil ChatGPTning pedagogik qiymati to‘rtta asosiy xususiyat bilan bog’liqligini ko‘rsatdi. Birinchidan, u tezkor fikr-mulohaza beradi. Talaba yozuv tugaguncha kutmay, reja, tezis, paragraf yoki xulosa bo‘yicha savol berishi mumkin. Ikkinchidan, muloqot davomida so‘rovni aniqlashtirish imkoni mavjud, ya’ni talaba umumiy javobdan keyin misol, sabab yoki muqobil variant so‘raydi. Uchinchidan, vosita bir matnni turli mezonlar bo‘yicha qayta tahlil qila oladi. To‘rtinchidan, u katta guruhlarda o‘qituvchining har bir qoralamaga darhol javob berish imkoniyati cheklangan vaziyatlarda dastlabki yordamni ta’minlaydi.

Bu imkoniyatlar ChatGPTga yozuvchi o‘rnini emas, jarayon murabbiysi vazifasini berishni talab qiladi. Talaba mavzu, asosiy fikr, dalil va yakuniy qaror uchun javobgar bo‘ladi.

1-jadval. ChatGPTning yozuv jarayonidagi yordamchi funksiyalari

Bosqich	ChatGPTning yordamchi funksiyasi	Talabaning mustaqil faoliyati	Kutiladigan natija
1	Mavzuni toraytirish uchun savollar va ehtimoliy yo‘nalishlar taklif qiladi	Maqsad, auditoriya va shaxsiy pozitsiyani o‘zi belgilaydi	Aniq va boshqariladigan yozuv vazifasi
2	Rejaning mantiqiyligini tekshiradi, yetishmayotgan bo‘g’inlarni ko‘rsatadi	Asosiy tezis va dalillarni tanlaydi	Izchil kompozitsiya
3	Paragraf birligi, bog’lanish va qarshi fikr bo‘yicha savollar beradi	Dastlabki matnni mustaqil yozadi	Mualliflik ovozi saqlangan qoralama
4	Mezon asosida xato va noaniqliklarni izohlaydi	Tavsiyalarni tekshiradi, qabul yoki rad etadi	Ongli qayta tahrir
5	Ikki variant orasidagi farqni tushuntirishga yordam beradi	O‘zgarishlar sababini refleksiya jurnalida yozadi	Metakognitiv anglash va transfer

Besh bosqichli pedagogik model.

Taklif etilayotgan modelning birinchi bosqichi yo‘naltirish va mezonlashtirishdir. O‘qituvchi yozuvning janri, maqsadi, auditoriyasi, hajmi va baholash mezonlarini tushuntiradi. Talaba ChatGPTdan mavzu bo‘yicha tayyor matn emas, balki mavzuni toraytiradigan savollar so‘raydi. Masalan, ushbu mavzu bo‘yicha uchta tadqiqot savolini taklif qil va

ularning farqini tushuntir. Talaba variantlardan birini asoslab tanlaydi yoki o‘z savolini shakllantiradi. Ikkinchi bosqich mustaqil qoralama yaratishdir. Bu bosqichda talaba ChatGPTsiz tezis, reja va birinchi variantni yozadi. Mustaqil qoralama keyingi rivojlanishni ko‘rish uchun diagnostik asos bo‘ladi. Uchinchi bosqich mezon asosida AI tahlilidir. Talaba matnni ChatGPTga yuborib, aniq mezon bo‘yicha fikr so‘raydi. Umumiy Matnimni yaxshila buyrugi o‘rniga Mening tezisim aniqmi, har bir paragraf tezisni qanday qo‘llab-quvvatlaydi va qaysi joyda dalil yetishmaydi kabi so‘rovlar ishlatiladi. ChatGPT matnni qayta yozmasligi, avval muammo va sababni ko‘rsatishi so‘raladi. Bu teskari aloqani o‘quv materialiga aylantiradi. To‘rtinchi bosqich tanqidiy qayta tahrirdir. Talaba har bir tavsiyani uch toifaga ajratadi,ya’noi bular qabul qilaman, qisman qabul qilaman, rad etaman. Qaror matn maqsadi, janr talabi, ishonchli manba yoki o‘qituvchi mezoni bilan asoslanadi. AI taklifini avtomatik qabul qilish ta’qiqlanadi. Beshinchi bosqich refleksiya va transferdir. Talaba dastlabki va yakuniy variantni taqqoslab, qaysi o‘zgarish matnni kuchaytirgani, qaysi AI tavsiyasi foydasiz yoki noto‘g’ri bo‘lgani va keyingi yozuvda nimalarni mustaqil qo‘llashini yozadi. Mazkur refleksiya bir martalik matn sifatini oshirishdan tashqari, o‘rgangan usulni yangi vaziyatga ko‘chirishga xizmat qiladi. **So‘rov tuzish savodxonligi.** ChatGPTdan olinadigan fikr-mulohazaning sifati so‘rovning aniqligiga bog’liq. Samarali so‘rov kamida besh unsurdan tuziladi, ya’ni rol, vazifa, kontekst, mezon va natija formati. Masalan, sen akademik yozuv bo‘yicha maslahatchisan. Quyidagi argumentativ paragrafni tezisga aloqadorlik, dalilning yetarliligi va mantiqiy bog’lanish mezonlari bo‘yicha tahlil qil. Matnni qayta yozma. Uchta kuchli tomon, uchta muammo va har bir muammo uchun savol shaklidagi tavsiya ber. Bunday tuzilma ChatGPTni muallif emas, diagnostik yordamchi sifatida ushlab turadi. Talabaga bir xil matn uchun turli so‘rovlarni sinash va javoblarni qiyoslash topshirig’i berilishi mumkin. Bu mashq model javobining mutlaq emasligini ko‘rsatadi, vazifa tilining natijaga ta’sirini ochadi va talabaning raqamli savodxonligini rivojlantiradi. So‘rov tuzish alohida texnik mahorat emas; u maqsadni aniqlash, mezonni tanlash va kerakli yordam turini nomlashni talab qilgani uchun yozuv haqidagi metakognitiv bilimni ham mustahkamlaydi.

Baholashni jarayonga yo‘naltirish. ChatGPT mavjud sharoitda faqat yakuniy matnni baholash talabaning haqiqiy hissasini ko‘rsatmaydi. Shuning uchun baholash portfeli dastlabki reja, mustaqil qoralama, AI bilan muloqotdan tanlangan parchalar, manba tekshiruvi, qayta tahrirlangan variant va refleksiya xatini qamrab olishi lozim. Bunda AI ishlatilganining o‘zi bahoni pasaytirmaydi**,** aksincha, undan ongli, ochiq va mezon asosida foydalanish baholanadi.

3-jadval jarayonli baholash mezonlari.

Mezon	**Mazmuni**	**Ulushi**
Mualliflik va mustaqillik	Tezis, dalil va yakuniy qaror talabaniki; shaxsiy pozitsiya izchil	25 foiz
Tuzilish va dalillash	Paragraflar tezisga xizmat qiladi, dalil va izoh o‘rtasida mantiqiy bog’lanish bor	25 foiz
Til va uslub	Leksik-grammatik aniqlik, janr va auditoriyaga mos uslub	20 foiz
AI teskari aloqasini baholash	Tavsiyalar ko‘r-ko‘rona emas, tekshirilib qabul yoki rad etilgan	15 foiz
Manba va akademik halollik	Iqtiboslar tekshirilgan, AI yordami ko‘rsatilgan, maxfiylik saqlangan	10 foiz
Refleksiya	Ozgarishlar va keyingi yozuv uchun xulosalar aniq izohlangan	5 foiz

O‘qituvchi va talaba rollari. O‘qituvchi ChatGPT javobini bilimning yakuniy manbai sifatida emas, muhokama materiali sifatida tashkil etadi. U topshiriqning AIga ochiq va yopiq qismlarini oldindan belgilaydi. Masalan, mavzuni toraytirish va qoralamani tahlil qilishga ruxsat berilishi, ammo tayyor esse yaratish, tekshirilmagan iqtibos keltirish yoki baholash topshirig’ini to‘liq bajartirish taqiqlanishi mumkin. O‘qituvchi namunaviy so‘rovlar bilan cheklanmay, ataylab zaif AI javoblarini ham tahlilga beradi. Talabalar xato, umumlashtirish, mantiqiy sakrash va manbasiz da’vo kabi kamchiliklarni topadilar.

Talaba esa so‘rov beruvchi, tekshiruvchi, tanlov qiluvchi va yakuniy muallif rolini bajaradi. U shaxsiy ma’lumot, boshqa talabaning ishi yoki nashr etilmagan tadqiqot ma’lumotini tizimga kiritmasligi kerak. AI yaratgan bibliografik ma’lumot har doim jurnal sayti, DOI, kutubxona katalogi yoki ilmiy baza orqali tekshiriladi. Agar kurs yoki jurnal siyosati talab qilsa, ChatGPTdan qaysi bosqichda va qanday maqsadda foydalanilgani metod yoki izoh qismida ochiq ko‘rsatiladi.

Amaliy tavsiyalar:

- Har bir yozuv topshirig’ida ChatGPTdan foydalanishning ruxsat etilgan, cheklangan va taqiqlangan shakllari oldindan yozma ko‘rsatilsin.
- Talaba ChatGPTga murojaat qilishdan oldin tezis yoki dastlabki qoralamani mustaqil tayyorlasin.
- So‘rovlar matnni qayta yozishga emas, muammoni aniqlash, sababni tushuntirish va savol shaklida tavsiya berishga yo‘naltirilsin.

- AI tavsiyalari kamida bitta mezon, ishonchli manba yoki talabaning kommunikativ maqsadi asosida tekshirilsin.
- Baholashda yakuniy matn bilan birga qoralama, reviziya tarixi, manba tekshiruvi va refleksiya xati hisobga olinsin.
- O‘qituvchi darsda AI javobining xato va noo‘rin misollarini tahlil qilishga alohida vaqt ajratsin.
- Talaba foydalanilgan AI yordamini qisqa deklaratsiya orqali ochiq ko‘rsatsin va yakuniy matn uchun to‘liq mas’uliyatni saqlab qolsin.

Xulosa. ChatGPT talabalarning yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yordamchi vosita bo‘lishi mumkin, ammo uning foydasi tayyor matn yaratish tezligi bilan emas, talabaning yozuv jarayoniga qanchalik faol jalb etilishi bilan belgilanadi. Eng maqbul modelda talaba mualliflik maqsadi, tezis, dalil va yakuniy tahrir uchun javobgar bo‘ladi; ChatGPT esa savol berish, mezon asosida tahlil qilish, xatoni tushuntirish va muqobil yo‘llarning afzallik hamda cheklovlarini ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Taklif etilgan besh bosqichli model yo‘naltirish, mustaqil qoralama, mezon asosida AI tahlili, tanqidiy qayta tahrir va refleksiyani yagona jarayonga birlashtiradi. Bu yondashuv yozuvning faqat yakuniy mahsulotini emas, rejalashtirish, teskari aloqani talqin qilish, qaror qabul qilish va o‘zgarishni asoslash kabi ko‘rinmas kognitiv jarayonlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Jarayon portfeli va shaffof foydalanish qoidalari akademik halollikni mustahkamlaydi.

Kelgusida mazkur modelni O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ona tili va xorijiy til yozuvi bo‘yicha tajribasinovdan o‘tkazish, turli til darajalari va janrlarda uning ta’sirini qiyoslash zarur. Ayniqsa, uzoq muddatli transfer, mualliflik ovozi, tanqidiy fikrlash va metakognitiv ko‘nikmalardagi o‘zgarishlarni empirik baholash muhim. Shunday tadqiqotlar ChatGPTni taqiqlash yoki cheksiz qabul qilish o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilikdan chiqib, uni pedagogik maqsad va inson mas’uliyatiga bo‘ysundirilgan vosita sifatida qo‘llashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Barrot, J. S. (2023). Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and potentials. Assessing Writing, 57, 100745. https://doi.org/10.1016/j.asw.2023.100745

[2] Hwang, H., Chang, X., & Sun, J. (2025). Generative AI is useful for second language writing, but when, why, and for how long do learners use it? Journal of Second Language Writing, 69, 101230. https://doi.org/10.1016/j.jslw.2025.101230

[3] Kasneci, E., Sessler, K., Kuchemann, S., et al. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences, 103, 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

[4] Kohnke, L., Moorhouse, B. L., & Zou, D. (2023). ChatGPT for language teaching and learning. RELC Journal, 54(2), 537-550. https://doi.org/10.1177/00336882231162868

[5] Koltovskaia, S., Rahmati, P., & Saeli, H. (2024). Graduate students’ use of ChatGPT for academic text revision: Behavioral, cognitive, and affective engagement. Journal of Second Language Writing, 65, 101130. https://doi.org/10.1016/j.jslw.2024.101130

[6] Li, B., Tan, Y. L., Wang, C., & Lowell, V. (2025). Two years of innovation: A systematic review of empirical generative AI research in language learning and teaching. Computers and Education: Artificial Intelligence, 9, 100445. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2025.100445

[7] Mahapatra, S. (2024). Impact of ChatGPT on ESL students’ academic writing skills: A mixed methods intervention study. Smart Learning Environments, 11, 9. https://doi.org/10.1186/s40561-024-00295-9

[8] Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

[9] OpenAI. (2022). Introducing ChatGPT. https://openai.com/index/chatgpt/